

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLTIARIQ SANOAT VA TEKNOLOGIYALAR TEXNIKUMI



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA O'YINNING

AHAMIYATI

Farg'on - 2025

Maktabgacha yoshdag'i bolalar hayotida

o'yining ahamiyati

Umarova Havasxon Isroiljonovna

Oltiariq Sanoat va texnologiyalar texnikumi

(Farg'onan viloyati, Oltiariq tumani)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalar hayotida o'yining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. O'yinlarning turlari va ularni tashkil etish yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, o'yinchoqlar, syujetli va roll o'yinlar, didaktik o'yinlar, harakatli yoki qoidalgi o'yinlar, aralashtirilgan o'yinlar, qurish va yasash o'yinlari

Annotation

This article discusses the importance of play in the lives of preschool children. It discusses the types of games and their organization

Keywords: games, toys, story and role-playing games, didactic games, action or rule-based games, mixed games, building and crafting games

Аннотация

В данной статье обсуждается важность игры в жизни детей дошкольного возраста. Рассматриваются типы игр и их организация.

Ключевые слова: игры, игрушки, сюжетные и ролевые игры, дидактические игры, игры-действия или игры, основанные на правилах, смешанные игры, игры по строительству и поделкам

Maktabgacha yosh davrida faoliyatning yetakchi turi - o'yin faoliyatidir. O'yin bola psixikasida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Bu faoliyat asosida keyingi davrda yetakchilik rolini bajaruvchi o'qish faoliyatining asoslari quriladi.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish ham, san'at, xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlangandir. Mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi hamda bolalar talab qilayotgan darajadagi to'laqonli hayotni ta'min eta oladi. O'yining bolalarni maftun etuvchi tomoni ana

shunda. O‘yin faqat tashqi muhitdagi, narsa va hodisalarni bilish vositasi bo‘libgina qolmay, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir.

O‘yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta’kidlashicha, o‘yin o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo‘lishi kerak:

- a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma-xil taassurotlar tarkib topishi;
- b) har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarining muhayyoligi;
- v) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi.

Bunda kattalaming bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatish uslubi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Bolaning yoshi ulg‘aya borishi bilan o‘yining muddati ham uzayib boradi. Mazkur jarayonni tadqiq qilgan A.P.Usovaning ma’lumotiga ko‘ra, 3 -4 yoshli bolalarning o‘yin faoliyati 10-15 daqiqa, 4 -5 yoshli bolalarning o‘yin faoliyati 40-50 daqiqa, katta maktabgacha yoshidagilaming o‘yin faoliyati bir necha soatgacha cho‘zilishi mumkin.

Maktabgacha yoshi bolalarni o‘yini xilma-xildir. Ularni o‘yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya qilish mumkin.

- 1) syujetli va rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar;
- 2) Didaktik o‘yinlar;
- 3) Harakatli yoki qoidalari o‘yinlar;
- 4) Aralashtirilgan o‘yinlar;
- 5) Qurish va yasash o‘yinlari.

Syujetli va rollarga bo‘lib o‘ynaladigan maktabgacha yoshi bolalarni eng asosiy o‘yin formasidir.

Masalan: «bog‘cha-bog‘cha», «poyezd-poyezd» kabi qiziqarli bo‘lgan o‘yinlar o‘ynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning o‘yinlari bir xil bo‘lsa ham syujeti har xil bo‘ladi. Masalan: kichik guruh bolalari «bog‘cha-bog‘cha» o‘yinini o‘ynar ekan ular peshinga ovqat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Hamma kesilgan non qo‘g‘irchoqlarga berilmaydi, pishirilgan ovqat tarelkaga suzilmaydi. Bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o‘yinlarni roli katta. Didaktik o‘yinlar bog‘chada maxsus programma asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishga yordam, katta guruh bolalarini maktabdagagi o‘qish faoliyatiga katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshi davrida bolalar o‘yinlari ichida harakatli yoki qoidalgi o‘yinlar ham muhimdir. Chunki harakli o‘yinlar bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtiradi, ularni dadil, qo‘rmas, epchil bo‘lishga undaydi.

Bolalarga tashabbuskorlik, kollektivizm, burch xislarini ustiradi. Bunga «Kim birinchi», «koptok», «oq quyoncha» o‘tiribdi «yetib ol» o‘yinlari kiradi.

Harakatli o‘yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘tkaziladi. Drammalashtirilgan o‘yinlarni ham bolalar sevib o‘ynaydilar. Bu o‘yinlar turli xil ertak va hikoyalari sahnaga qo‘yiladi, rollarni esa bevosita bolalarni o‘zlari ijro etadilar. Masalan: «Qizil shapkacha», «Sholg‘om» drammalli o‘yinlar bolalarni nutqi xayol va qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Maktabgacha yoshi bolalari o‘yinlari orasida qurish, yasash o‘yinlari hammaga ma’lum bir maqsadga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yin faoliyati bolalarni individual ravishda o‘rganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bo‘lib o‘ynashni yoqtiradilar bu psixologik bolani umumiylara taraqqiyotiga ta’sir etadi. Shuning uchun tarbiyachilar jamoa o‘yinlarga tortishlari kerak. Bu yoshdagi bolalar o‘yinlari quyidagi psixologik xususiyatga ega.

1) Bolalar o‘yinlari mazmuni xaddan tashqari boyligidadir. Bolalar hayotining sermazmunligi buning asosiy sababidir.

2) Bolarlar o‘yinlarini doimo jamoa tusda ekanligi.

3) Xususiyat o‘yin jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularini namoyon bo‘lganligidadir. O‘rta va katta maktabgacha yoshidagi bolalar O‘zbekistonning poytaxtini juda yaxshi biladilar va uni sevadilar, shu tufayli o‘yinchoqlardan zo‘r maroq va g‘urur yasaydilar. Bundan tashqari turli millat bolalari uchun yasalgan qo‘g‘irchoqlarni sevadilar va o‘zlari ham plastilindan shunday qo‘g‘irchoqlarni yasashga intiladilar.

4) Xususiyati – o‘yin jarayonida kishilarni mehnatga munosabatlarini aks ettiradilar. O‘rta va katta guruh bolalari o‘yinlarida kattalar mehnatining o‘zlariga ma’lum bo‘lgan turlarini aks ettiradilar. Ular bir-birlari bilan doimo do‘sit va ittifoq bo‘lib o‘ynaydilar. Bir-birlariga o‘rtoqlariga yordamlashadilar.

Xususiyati-insonparvar va hayotbaxsh bo‘lishidir. Bolalar o‘zlarini o‘yinlarida halkimiz kishilarini kelajakka bo‘lgan ishonchini ko‘tarinki ruhini va yuksak maqsad sari intilishlarini aks ettiradilar. Shunday qilib, maktabgacha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a surib borayotgan sermahsul hayotimizning hamma tomonlarini aks ettiradilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning turli-tuman o‘yin faoliyatları sekin-astalik bilan ularni o‘qish faoliyatiga tayyorlaydi. Bolalarning o‘yin faoliyatlariga tarbiyachilar ta’lim elementlarini kiritadilar. Natijada bolalar o‘yin orqali juda ko‘p narsalarni bilib oladilar, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishlari orta boradi. Demak, o‘yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir.

A.S.Makarenkoning fikricha, bolalarning o‘yin faoliyatları ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, bolalar uchun o‘yin shunchalik ahamiyatga ega. «Yaxshi o‘yin faoliyati, –yaxshi bajarilayotgan mehnatga o‘xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o‘yin faoliyatida o‘zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo‘lganlaridan so‘ng mehnat faoliyatlarida ham ko‘p jihatdan o‘zlarini

shunday namoyon etadilar». A.S.Makarenkoning bu fikri bolalarning o‘yin faoliyatlari orqali ularda yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalash imkoniyati naqadar katta ekanligiga ahamiyat bilan qarashni taqozo etadi. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning shakliga, ya’ni ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan, ma’lum malaka, ko‘nikma hamda elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Bularga esa bola faqat o‘yin faoliyati tufayligina erishadi.

MUHOKAMA NATIJALARI

Har qanday o‘yining va o‘yin faoliyatining markazida bola katta kishilaming faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra, o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan qimmatli bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va odatlami o‘rganishiga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda o‘yin faoliyati bolaning har tomonlama rivojlanishida juda katta o‘rinni egallaydi. O‘yin ta’lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi.

MTT larda bolalar o‘yin faoliyatini to‘g‘ri va sifatli tashkillash uchun pedagoglar:

-bolalar o‘yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar);

bolalar o‘yinini rivojlantirish;

bolalarning o‘yinda o‘zaro munosabatda bo‘lishiga yordam berish;

bolalarga o‘zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berishlari lozim

Foydalanilgan adabiyotlar

Ergash G‘oziev “Ontogenet psixologiyasi” O‘quv qo‘llanma . Toshkent. “NIF MSH”
2020

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Dastur maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2021-yil 23-dekabrdagi 10-sonli bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori

Fotima Qodirova, Shoista Toshpo‘latova, Nargiza Kayumova, Malohat A’zamova
“Maktabgacha pedagogika” darslik. “Tafakkur “nashriyoti 2019-yil